QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINING MOHIYATI VA BAHOLASH MEZONLARI	777
Abdikarimova Zilola Baxramovna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI	784
Ro'ziyeva Shaxlo Salimboyevna	
AXBOROT TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH VA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISHNI QO'LLAB-QUVVATLASH	788
Samiyeva Maftuna Faxriddin qizi	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI DAROMADLILIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	791
Sanayev Javoxir Shovkat o'g'li	
FISCAL, MONETARY, AND CUSTOMS-TARIFF POLICIES IN ENSURING NATIONAL ECONOMIC STABILITY: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	796
Maxmudov S.T.	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ КЛАСТЕРОВ	801
Юсупова Н.Т.	
SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY FAKTORLAR TAHLILI	807
Rahimova Mushtariybegim Muxammadg'olib qizi	
DEMOGRAFIK O'ZGARISHLAR VA ULARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY OQIBATLARI.....	812
Abdumalikova G.F.	
MINTAQAVIY INVESTITSIYA SIYOSATINI SAMARALI BOSHQARISHNING IQTISODIY VA INSTITUTSION ASOSLARI	821
Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	
RAQAMLI AVIATSIYA EKOTIZIMI: AI/ML, DIGITAL TWIN VA BLOKCHEYN INTEGRATSIYASI	828
Azimova Moxinur Nozimovna	
XALQARO MOLIYA BOZORLARIDA INVESTITSIYA RISKLARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI	834
G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATINING REKREATSIYA RESURSLARI VA DAVOLASH-SOG'LOMLASHTIRISH TURIZMI SALOHİYATI	839
Murtazayeva Gulrux Isabek qizi	
MINTAQALAR TURISTIK-REKREATSION IMKONIYATLARINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY GIS USULLARINI QO'LLASH (SARIOSIYO TUMANI MISOLIDA)	845
Safarov Manuchexr Axtam o'g'li	
XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH	852
Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich	
TURIZM FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHGA OID NAZARIY BILIMLARNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI	857
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	



TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI MUSTAHKAMLIGINI BAHOLOVCHI KO'RSATKICHLAR TIZIMI	863
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	871
Maxsudov Sherzod Solijonovich	
FISCAL, MONETARY, AND CUSTOMS-TARIFF POLICIES IN ENSURING NATIONAL ECONOMIC STABILITY: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	877
Mahmudov Sarvar	
ATROF-MUHITGA OID FISKAL KO'RSATKICHLAR ASOSIDA MINTAQAVIY BAHOLASH	882
Zilola Rahmatova	
XORAZM VILOYATI TUMANLARIDA EKSPORT SAMARADORLIGI: STOXASTIK CHEGARAVIY TAHLIL (SFA) ASOSIDAGI EMPIRIK YONDASHUV	887
Fozil Xolmurotov	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ БЕДНОСТИ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПОДХОДЫ И НАЦИОНАЛЬНАЯ СПЕЦИФИКА.....	900
Мамаризоев Жахонгир Исохонович	
EKOLOGIK VAZIYAT VA AHOLI SALOMATLIGINING PROGNOZ KO'RSATKICHLARI	905
Egamqulov Husniddin Erkaboyevich	
CHO'L HUDUDLARIDA TURISTIK RESURLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	911
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Mavlonov Ahmadjon Muhammadovich	
КОНЦЕПЦИЯ ИДЕНТИФИКАЦИИ И ИЗМЕРЕНИЯ ЭФФЕКТОВ ЗАНЯТОСТИ В ЭКОЛОГО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ЭКОНОМИКЕ	918
Сагидуллин Фарид Радикович	
ТЕНДЕНЦИИ В РАЗВИТИИ ГОСТИНИЧНОГО БИЗНЕСА В СФЕРЕ ПРОДВИЖЕНИЯ И СБЫТА ТОВАРОВ И УСЛУГ В ИНДУСТРИИ ГОСТЕПРИИМСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	927
Бабаджанова Лола Шопулатовна	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA OZIYQ-OVQATNI RIVOJLANTIRISHDA QISHLOQ XO'JALIGINING ROLI.....	935
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich, Bustonov Komiljon Kumakovich	
TURISTIK MINTAQALARNI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING ISHTIROKINI TA'MINLASHNING AYRIM MASALALARI	943
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
TA'LIM KLASSTERLARI KONTEKSTIDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA STRATEGIK YECHIMLARI: TRIPLE HELIX MODEL ASOSIDA TAHLIL.....	947
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA ISTIQBOLLARI.....	954
Xamdullayeva Gulhayo Ergash qizi	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI	960
Sirojiddinov Kamoliddin	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	967
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
AGROTADBIRKORLIK FAOLIYATINING ASOSIY FUNKSIYALARI VA RIVOJLANISH QONUNIYATLARI.....	971
Nasriddinov Xusanbek Sadriddin o'g'li	
TEMIR YO'L TRANSPORTIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARI	976
Abdusattorov Abdusamat Sobirovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHDA MENEJMENT QARORLARINING IQTISODIY TAHLILI	981
Karieva Gulnora Abdullayevna , Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA O'QUV DASTURLARINING KAPITAL ZICHLIGI	989
Dusanov Salim Mamarasulovich	



QATTIQ CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA INNOVATSION MENEJMENTNING O'RNI VA AHAMIYATI	995
Temirov Azizbek Voit o'g'li	
STRATEGIK REJALASHTIRISH ORQALI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	1002
G.Ya. Muxibova, O.U. Sharifxodjayeva, O. To'rabekova	
ДЕТЕРМИНАНТЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ МЕЖРЕГИОНАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ РАБОЧЕЙ СИЛЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1009
Шакаров Зафар Гаффорович	
TURIZM KLASSTERLARIDA TIBBIY XIZMATLAR INTEGRATSIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1018
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi, Farxodova Shohnnoza Umidbek qizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRUVCHI ZAMONAVIY YONDASHUVNI ISHLAB CHIQISH	1027
Xojiyeva Nazokat Davronbekovna	
QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON MISOLIDA.....	1034
Shodiyeva Zarinnabonu Shodi qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1039
Qurbaniyozov Shaxzodbek Karimovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1044
Qurbanbayev Jurabek Eruvboyevich	
FINTECH TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING KORXONA LIKVIDLIGIGA TA'SIRI.....	1048
Karimov Xondamir Jamshid o'g'li	
IMPROVING STRATEGIC MANAGEMENT ACCOUNTING OF INCOME AND EXPENSES.....	1056
Pardaeva Shakhnoza Abdinabievna	
DIGITAL SKILLS AND ACCOUNTING EDUCATION: NEEDS AND GAPS IN UZBEK HIGHER EDUCATION – CURRICULUM IMPLICATIONS FOR THE DIGITAL AGE	1061
Rustamova Iroda Bahtiyorovna	
TIJORAT BANKLARINING KREDIT XIZMATLARI: ZAMONAVIY TAHLIL VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI.....	1066
Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING YUQORI SIFATLI RIVOJLANISHINI TA'MINLASH	1073
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISH	1079
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
MAHSULOT, ISH (XIZMAT)LAR TANNARXIGA KIRITILADIGAN MODDIY XARAJATLAR VA ULARNI HUIJATLASHTIRISH.....	1084
Bolibekov Baxtiyor Achilovich, Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich	
AYOLLARNING YETAKCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA TO'SIQLARI	1088
Baymuratova Guldjahan Xamdammovna	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH AMALIY TAHLILI JARAYONLARI.....	1093
Boboqulov Akmal Muborakbekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOB, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT TIZIMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI	1099
To'laganov Ziyovuddin Kamolitdin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING IQTISODIY O'SISHDAGI AHMIYATI	1105
Nematullo Zuvaydullaev	



GLOBAL OZIQ-OVQAT TIZIMIDA AQSH IMPORT-EKSPORT SIYOSATI VA UNING MILLIY OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI	1109
Matjonov Bekjon Ravshonbekovich	



GLOBAL OZIQ-OVQAT TIZIMIDA AQSH IMPORT- EKSPORT SIYOSATI VA UNING MILLIY OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI



Matjonov Bekjon Ravshonbekovich

Urganch RANCH texnologiya universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti v.b. (PhD)
ORCID: 0000-0003-2450-1443

Annotatsiya. Maqolada AQShning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi siyosiy, iqtisodiy va institutsional tajribalari tahlil qilinadi. Oziq-ovqat ishlab chiqarishdagi texnologik innovatsiyalar, davlat dasturlari va xalqaro hamkorlikning milliy xavfsizlikka ta'siri ko'rsatib o'tiladi. AQSh oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda ichki bozorni himoya qilish, sifat nazorati va eksport salohiyatini oshirish orqali global yetakchilikka erishgan mamlakat sifatida ko'rib chiqildi. Tadqiqot natijalari O'zbekiston uchun ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, oziq-ovqat siyosatini takomillashtirishda foydali xulosalar beradi.

Kalit so'zlar: AQSh, oziq-ovqat xavfsizligi, davlat dasturlari, import-eksport, qishloq xo'jaligi, innovatsiya.

Abstract. The article analyzes the political, economic, and institutional experience of the United States in ensuring food security. It highlights the impact of technological innovations in agriculture, government programs, and international cooperation on national security. The United States is considered a country that has achieved global leadership in food security by protecting its domestic market, ensuring quality control, and increasing export capacity. The findings of the study are also relevant for Uzbekistan, providing useful insights for improving food security policies.

Key words: USA, food security, government programs, import-export, agriculture, innovation.

Аннотация. В статье анализируется политический, экономический и институциональный опыт США в обеспечении продовольственной безопасности. Рассматривается влияние технологических инноваций в сельском хозяйстве, государственных программ и международного сотрудничества на национальную безопасность. США представлены как страна, достигшая глобального лидерства в продовольственной безопасности за счет защиты внутреннего рынка, контроля качества и увеличения экспортного потенциала. Результаты исследования имеют актуальное значение и для Узбекистана, предоставляя полезные выводы для совершенствования продовольственной политики.

Ключевые слова: США, продовольственная безопасность, государственные программы, импорт-экспорт, сельское хозяйство, инновации.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida oziq-ovqat xavfsizligi masalasi jahonning deyarli barcha mamlakatlari uchun eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. BMT va FAO ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha ikki milliarddan ortiq aholi sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga yetarlicha ega emas, qariyb 735 million inson esa surunkali ochlikdan aziyat chekmoqda [1]. Shu sababli, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bugungi kunda nafaqat rivojlanayotgan, balki rivojlangan mamlakatlar uchun ham strategik ustuvorlikka ega.

AQSh dunyo oziq-ovqat tizimining eng yirik ishtirokchilaridan biri bo'lib, global qishloq xo'jaligi eksportida 10 foizdan ortiq ulushga ega [2]. Mamlakat bugungi kunda nafaqat o'z ichki ehtiyojlarini to'liq qondira oladi, balki don, soya, go'sht va sut mahsulotlari eksporti orqali jahon bozorida ustuvor o'rin egallaydi. Shu bilan birga, AQSh ayrim mahsulotlar, masalan, tropik mevalar, qahva va dengiz mahsulotlari importida boshqa



mamlakatlarga qaramdir [3]. Bu esa mamlakat oziq-ovqat siyosatida diversifikatsiya, logistika xavfsizligi va xalqaro hamkorlikka alohida e'tibor qaratilishini taqozo etadi.

AQShning oziq-ovqat xavfsizligi siyosati uch asosiy yo'nalishga tayanadi. Birinchisi, qishloq xo'jaligini yuqori darajada modernizatsiya qilish va ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish. Ikkinchisi, oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligini qat'iy nazorat qilish. Uchinchisi, global oziq-ovqat bozorida faol ishtirok etish va xalqaro savdoda o'z pozitsiyasini mustahkamlash [4]. Bu yo'nalishlarning barchasi AQSh tajribasining o'ziga xosligini belgilaydi.

Shuningdek, AQShda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda Farm Bill, USDA (United States Department of Agriculture) va FDA (Food and Drug Administration) kabi institutsional mexanizmlar muhim ahamiyat kasb etadi [5]. Bu tajribalar nafaqat mamlakat ichida, balki global oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda ham katta ahamiyatga ega. Shu sababli AQSh tajribasini o'rganish O'zbekiston uchun ham foydali bo'lib, davlat siyosatini modernizatsiya qilishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oziq-ovqat xavfsizligi masalasi global miqyosda keng o'rganilgan bo'lib, AQSh tajribasi ko'plab ilmiy tadqiqotlarda alohida tahlil qilingan. Jumladan, K.Anderson o'z asarida AQSh qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan siyosiy islohotlar nafaqat ichki bozorni, balki xalqaro savdo tizimini ham sezilarli darajada o'zgartirganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, AQShning subsidiyalari siyosati eksport salohiyatini oshirishda va global oziq-ovqat bozorida yetakchi o'rin egallashida muhim omil bo'lgan [6].

D.Order, R.Paarlberg va T.Roelar AQShning qishloq xo'jaligi siyosatini tahlil qilib, "Farm Bill" dasturi mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda markaziy o'rinni egallashini qayd etadi. Ularning fikricha, ushbu dastur ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, innovatsiyalarni rag'batlantirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash orqali AQSh qishloq xo'jaligi tizimini yanada mustahkamlagan [7].

J.Braun esa oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha global tahdidlarni tahlil qilar ekan, AQShning xalqaro hamkorlikdagi faol ishtirokini yuqori baholaydi. Unga ko'ra, AQSh nafaqat o'z aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlash, balki jahon bozorida barqarorlikni saqlashda ham strategik ahamiyatga ega davlatdir [8].

Shuningdek, Paarlberg o'z tadqiqotlarida AQSh oziq-ovqat siyosatining siyosiy jihatlarini o'rganib, oziq-ovqat xavfsizligi nafaqat iqtisodiy, balki geosiyosiy vosita sifatida ham ishlatilishini ko'rsatib o'tadi. Bu jihat global oziq-ovqat siyosatini tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [9].

O'zbekistonlik olimlar ham AQSh tajribasini qiyosiy tahlil qilishda e'tibor qaratgan. Masalan, Mahamatova O'zbekiston uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda AQSh kabi rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanish zarurligini ta'kidlab, ayniqsa sifat nazorati va qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha saboqlar olish mumkinligini ko'rsatadi [10]. Tadjibayev esa oziq-ovqat xavfsizligi masalalarida xalqaro tajriba, xususan AQShning eksport-import siyosatini O'zbekiston uchun amaliy yo'nalish sifatida o'rganish zarurligini qayd etadi [11].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, AQShning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash tajribasi institutsional, iqtisodiy va global siyosiy jihatlar bilan ajralib turadi. Bu tajriba O'zbekiston uchun ham amaliy ahamiyatga ega bo'lib, milliy oziq-ovqat siyosatini takomillashtirishda foydali bo'lishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda AQShning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash tajribasi tizimli yondashuv asosida o'rganildi. Asosiy ma'lumot manbalari sifatida xalqaro tashkilotlarning (FAO, WTO, Jahon banki) hisobotlari, USDA va FDAning statistik ko'rsatkichlari hamda ilmiy adabiyotlardan foydalanildi [12]. Birinchi navbatda statistik tahlil yordamida AQShning oziq-ovqat ishlab chiqarishi, import-eksport ko'rsatkichlari va subsidiyalari raqamli ma'lumotlar asosida o'rganildi. Keyinchalik qiyosiy yondashuv orqali AQSh tajribasi boshqa mamlakatlar bilan solishtirildi [13].

Shuningdek, institutsional tahlil yordamida USDA, FDA va "Farm Bill" kabi tizimlarning oziq-ovqat xavfsizligidagi roli tahlil qilindi. SWOT-tahlil orqali esa AQSh oziq-ovqat tizimining kuchli va zaif tomonlari hamda global tahdidlar aniqlandi [14].

TAHLIL VA NATIJALAR

2023-yilda AQShning qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari eksporti jami 196 milliard dollarni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2021-yildagi umumiy eksportdan 11 foizga yoki 19,5 milliard dollarga oshgan. Ushbu daromadning katta qismi tarixan yuqori narxlar bilan bog'liq, chunki qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy eksport hajmi o'tgan yilga nisbatan 6 foizga kamaydi.



2-jadval. AQSH oziq-ovqat importi tarkibiy tahlili (2023-yil, milliard AQSh dollarida)

Kategoriya	Narxi (milliard dollar)	Oziq-ovqat importidagi ulushi, %
Kuchli ichimliklar	10,87	10,45
Qisqichbaqasimonlar	9,10	8,75
Sharob	6,79	6,53
Kofe	8,89	8,55
Baliq filesi	8,53	8,20
Pivo	6,88	6,61
Non mahsulotlari	9,29	8,93
Tropik mevalar	4,75	4,56
Boshqa sabzavotlar	4,28	4,11
Xushbo'y hidli suvlar	3,26	3,14
Boshqa ishlov berilgan mevalar va yong'oqlar	4,18	4,02
Boshqa mevalar	3,44	3,31
Mol go'shti	4,85	4,67
Shokolad	3,81	3,66
Bananlar	2,70	2,60
Qayta ishlangan qisqichbaqasimonlar	4,38	4,22
Pomidorlar	3,14	3,02
Muzlatilgan mol go'shti	2,83	2,72
Boshqa tayyor oziq-ovqat mahsulotlari	3,43	3,30
	3,29	3,16

AQSH oziq-ovqat importi tarkibida kuchli ichimliklar (10,45%), non mahsulotlari (8,93%), qisqichbaqasimonlar (8,75%), kofe (8,55%) va baliq filesi (8,20%) yetakchi o'rinlarni egallaydi. Bu mahsulotlarga yuqori talab AQSHning o'sib borayotgan iste'mol bozori va o'rta sinfning ehtiyojlarini aks ettiradi. Shuningdek, mevalar, shokolad va go'sht mahsulotlari kabi tovarlar ham importda muhim ulushga ega. Oziq-ovqat iste'molining xilma-xilligi AQSH iqtisodiyotining globallashuvi va xalqaro bozorlarga katta bog'liqligini ko'rsatadi (2-jadvalga qarang).

AQSHning oziq-ovqat sohasidagi savdo balansining tahlili shuni ko'rsatadiki, mamlakat asosan oziq-ovqat ishlab chiqarish uchun asosiy xom ashyoni (tayyor ovqatlar, souslar va ziravorlar bundan mustasno) eksport qiladi va faqat qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlarini, shuningdek, sabzavot va mevalarni import qiladi. ishlab chiqarish texnologik xususiyatlari va iqlim omillari tufayli qiyin.

Qo'shma Shtatlarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va tartibga solishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardir:

- 1) Xarid qilish va garovga qo'yish operatsiyalari.
- 2) Oziq-ovqat uchun kafolatlangan narxlar.
- 3) Bir qator ekinlarni sotish bo'yicha bozor kvotalari bozorda sun'iy taqchillikni yuzaga keltirish va buning natijasida fermerlar uchun xarid narxlarini oshirish maqsadida amalga oshiriladi.
- 4) Fermer xo'jaliklari krediti fermerlarga xususiy va davlat moliyalashtirish manbalarini o'z ichiga olgan yaxshi rivojlangan kredit tarmog'idan foydalanish imkonini beradi, bunga alternativ sifatida mahalliy fermer xo'jaligi ma'muriyati.

5) Qishloq xo'jaligi hududlarida infratuzilmani qurish va keyinchalik ta'mirlash uchun davlat subsidiyalari - aloqa yo'llari va telefon liniyalarini qurishdan tortib, hududlarni elektr energiyasi va gaz bilan ta'minlashgacha bo'lgan keng ko'lamli loyihalarni o'z ichiga oladi.

- 6) Eksport subsidiyalari. Ushbu sohadagi asosiy dasturlar:
- Eksport kreditlarini kafolatlash dasturi – eksportchilarni Amerikada ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorlarini kengaytirishda qo'llab-quvvatlash;
 - Genetik modifikatsiyalangan ekinlar eksportiga texnik ko'maklashish dasturi genetik modifikatsiyalangan oziq-ovqat va urug'lik zaxiralarini tashqi bozorga chiqarishga qaratilgan bo'lib, unga har yili qariyb 1 milliard byudjet mablag'lari ajratiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda kuchli va zaif tomonlarini o'rganish asosida AQSh milliy oziq-ovqat xavfsizligi tizimining SWOT tahlili ishlab chiqildi (3-jadval).



3-jadval. AQSh milliy oziq-ovqat xavfsizligi tizimining SWOT tahlili

	Ijoiy ta'sir	Salbiy ta'sir
Ichki muhit	Kuchli tomonlari: - qulay iqlim sharoiti; - Keng qonunchilik bazasining mavjudligi; - o'zimizning urug' va naslchilik zaxiramiz mavjudligi; - davlat tomonidan katta miqdorda subsidiyalari; - ishlab chiqaruvchilardan oziq-ovqat mahsulotlarini davlat xaridi; - qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirish (kimyolashtirish, GMO ekinlardan foydalanish); - qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlash tizimi ishlab chiqilgan.	Kamchiliklari: - yirik qishloq xo'jaligi korporatsiyalari tomonidan bozorni egallash; - qishloqlardan yoshlarning migratsiyasining kuchayishi; - aholining barcha qatlamlari uchun oziq-ovqat mahsulotlarining iqtisodiy va ekologik jihatdan qulayligi yo'qligi.
Tashqi muhit	Imkoniyatlar: - oziq-ovqat mahsulotlari eksportini diversifikatsiya qilishning yuqori darajasi; - Amerikada ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlarining tashqi bozorda arzonligi.	Tahdidlar: - qishloq xo'jaligi texnikasi importiga bog'liqligi; - import qilinadigan qishloq xo'jaligi xom ashyosiga qaramlik.

Ushbu jadvalda AQSh oziq-ovqat xavfsizligi tizimining SWOT tahlili berilgan. Ichki omillar orasida qulay iqlim, rivojlangan qonunchilik bazasi, urug' va naslchilik zaxiralari hamda davlat subsidiyalari ijobiy jihatlar sifatida qayd etilgan. Shu bilan birga, yirik korporatsiyalarning ustunligi, qishloqlardan migratsiya va infratuzilmaning zaifligi kamchiliklar hisoblanadi. Tashqi omillar qatorida eksportni kengaytirish imkoniyati va mahsulotlarning raqobatbardoshligi afzallik sifatida, importga qaramlik esa tahdid sifatida ko'rsatilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, AQSh oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida yuqori darajada rivojlangan institutsional, iqtisodiy va tashkiliy tajribaga ega. Mamlakat oziq-ovqat ishlab chiqarish hajmini barqaror ushlab turish, eksport salohiyatini oshirish va sifat nazoratini qat'iy yo'lga qo'yish orqali global yetakchilikni saqlab qolmoqda. "Farm Bill", USDA va FDA kabi mexanizmlar orqali AQSh oziq-ovqat siyosatini tizimli ravishda olib bormoqda.

O'zbekiston uchun AQSh tajribasidan olinadigan eng muhim jihatlar quyidagilardan iborat: birinchidan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni samarali tashkil etish; ikkinchidan, oziq-ovqat mahsulotlari sifatini nazorat qilishda mustaqil va kuchli institutsional tizim yaratish; uchinchidan, eksport salohiyatini kengaytirish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish. Shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda uzoq muddatli strategik dasturlarni ishlab chiqish O'zbekiston uchun muhim yo'nalish hisoblanadi.

Demak, AQSh tajribasini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish milliy oziq-ovqat siyosatini yanada takomillashtirish, ichki bozor barqarorligini mustahkamlash va xalqaro savdodagi ishtirokini kengaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. FAO. (2023). The State of Food Security and Nutrition in the World. Rome.
2. World Bank. (2023). Agricultural Trade and Food Security Report. Washington, DC.
3. USDA. (2023). US Agriculture and Food Security Overview. Washington, DC.
4. Anderson, K. (2010). Globalization and Agricultural Trade Policy. Cambridge University Press.
5. Orden, D., Paarlberg, R., & Roe, T. (2009). Policy Reform in American Agriculture: Analysis and Prognosis. University of Chicago Press.
6. Anderson, K. (2010). Globalization and Agricultural Trade Policy. Cambridge University Press.
7. Orden, D., Paarlberg, R., & Roe, T. (2009). Policy Reform in American Agriculture: Analysis and Prognosis. University of Chicago Press.
8. Braun, J. (2009). Food Security Risks Must Be Comprehensively Addressed. IFPRI Policy Brief.
9. Paarlberg, R. (2013). Food Politics: What Everyone Needs to Know. Oxford University Press.
10. Mahamatova, D. (2021). Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda xorijiy tajribadan foydalanishning nazariy asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot va ta'lim jurnali.
11. O.A.Tadjibayev (2023). O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari va xorijiy tajriba. Scientific Journal, 3(5), 112–120.



12. WTO. (2023). World Trade Statistical Review. Geneva.
13. Huang, J., & Rozelle, S. (2018). China's Agricultural Development and Food Security. Journal of Agrarian Change, 18(4), 731–748.
14. Paarlberg, R. (2013). Food Politics: What Everyone Needs to Know. Oxford University Press.
15. <https://oec.world/en/profile/country/> sayti ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
